



THE PLACE OF THE GEOGRAPHICAL LOCATION OF THE LOWER COURSE OF THE AMU DARYA IN THE URBAN CULTURE OF ANTIQUE

Kh. A. Palvanov

Lecturer

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Geography, Karakum, Kyzylkum, Amu Darya, Sultan Uvays Mountain, Tashsaqa, Kaltaminor Canal, Tozabogyob Canal, Tuproqqala-Gavkhora Valley, Tashkhirman, Anqaqala, Labyrinth.

Abstract: The article discusses the role of the geographical location of the Amu Darya basin in the urban culture of the ancient period, and discusses the influence of the geography, location, and climate of the Khorezm oasis on the development process of cities.

Received: 05.06.25

Accepted: 07.06.25

Published: 09.06.25

ANTI-K DAVRI AMUDARYO QUYI OQIMI GEOGRAFIK JOYLASHUVINING SHAHARSOZLIK MADANIYATIDAGI O'RNI

H. A. Palvanov

o'qituvchi

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Geografiya, Qoraqum, Qizilqum, Amudaryo, Sulton Uvays tog'i, Toshsaqa, Kaltaminor kanali, Tozabog'yob kanali, Tuproqqal'a-Gavxo'ra dahasi, Toshxirmon, Anqaqal'a, Labirint.

Annotatsiya: Maqolada Antik davri amudaryo quyi oqimi geografik joylashuvining shaharsozlik madaniyatidagi o'rni to'g'risida so'z yuritilib, Xorazm vohasi geografiyasi, joylashish o'rni va iqlimi shaharlarning rivojlanish jarayoniga ta'siri haqida to'xtalib o'tilgan.

МЕСТО ГЕОГРАФИЧЕСКОГО РАСПОЛОЖЕНИЯ НИЖНЕГО ТЕЧЕНИЯ АМУДАРЬИ В ГОРОДСКОЙ КУЛЬТУРЕ АНТИЧНОСТИ

Х. А. Палванов

преподаватель

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	География, Каракумы, Кызылкумы, Амударья, гора Султан-Увайс, Ташсака, канал Калтаминор, канал Тозабегеб, долина Тупроккала-Гавхора, Ташхирман, Анкакала, Лабиринт.	Аннотация: В статье рассматривается роль географического положения бассейна Амударьи в городской культуре античного периода, а также рассматривается влияние географии, местоположения и климата Хорезмского оазиса на процесс развития городов.
------------------------	--	---

Xorazm vohasi Markaziy Osiyoning shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, uning geografiyasi qadimdan mintaqaning iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Voha Amudaryo vodiysi bo'ylab cho'zilgan bo'lib, shimoldan Qoraqum va Qizilqum cho'llari, janubdan esa Kopetdog' tog'lari bilan chegaralangan. Xorazmning asosiy suv manbasi Amudaryo bo'lib, ushbu daryo vohaning xo'jaligi rivojiga asosiy turtki bergan. Ushbu hududda qadimgi sug'orish tizimlari, jumladan, kanallar annalar, ariqlar (yoplar) tarmog'i yaxshi rivojlangan. Antik va ilk o'rta asrlarda bu tizimlar Xorazm vohasining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini rivojlantirishga xizmat qilgan [1].

O'lkadagi geografik sharoitlar Xorazmning iqlimiga ham ta'sir ko'rsatgan. Vohada yozi issiq va quruq, qishi esa sovuq va nisbatan qisqa bo'lgan. Bu esa o'z navbatida dehqonchilik mavsumini aniq rejalashtirishni talab qilgan. Shuningdek, Xorazmning geografik joylashuvi Buyuk ipak yo'li tarmog'ida muhim tranzit nuqta bo'lishiga olib kelgan. Xorazm vohasining tabiiy resurslari, jumladan, unumdor tuproqlar va suv resurslari, vohada shaharsozlik va savdo-sotiq rivojlanishiga turtki bo'lgan [2].

Geografik joylashuvi sababli, Xorazm turli madaniyatlar va xalqlar o'rtasida madaniy va iqtisodiy almashinuv markazi bo'lib xizmat qilgan. Xorazm – O'rta Osiyodagi tarixiy hudud va qadimgi davlat bo'lib, Amudaryoning quyi oqimida joylashgan [3]. Quyi Amudaryo hududi past tekisliklardan iborat bo'lib, janubiy-sharqiy, shimolga tomon bir oz qiyalashgan holda, tekislikda sayoz chuqurliklar ko'p, quruq o'zanlar, tepaliklarning balandligi 4-6 metrga borgan. Toshsaqa hududi daryo sathidan 8-10 metr balandlikda, o'ng sohili esa past, yotiq bo'lib atrofdagi yerlardan 1-3 metr farq qilgan. Amudaryo o'ng sohilining shimoliy-sharqiy tomonida Sulton Uvays tog'i bo'lib, uning balandligi 471 metrni tashkil etadi[4].

O'zbekistonda tabiiy-geografik sharoit turlicha bo'lishi tufayli xilma-xil sun'iy sug'orish usullaridan foydalanilgan. Soy oqavasi, havza va hovuzlarda suv to'plash, chig'irliqlar orqali chuqurdan suv chiqarish, kanal va ariqlar qazish yo'li bilan suv keltirish qadimdan saqlanib kelgan. Ariq va kanallarga daryolardan saqa orqali suv chiqarish usuli juda keng tarqalgan. Bu nisbatan qulay va ishonchli usul bo'lsa-da, asli nihoyatda murakkab va sermehnat hisoblangan. Magistrallik kanallar vohadagi yerlarni sug'orish uchun qazilib, daryo qirg'oqlarining holatiga

qarab uning o'ng va chap sohilidan qazib chiqarilgan. Mazkur kanallardan shahobchalar, so'ngra ulardan mayda sug'orish tarmoqlari ajralib chiqqan[5].

Bozorqal'a Kaltaminor kanali yonma-yon chiqarilgan Bozorqal'a kanali va undan faqat o'ng tarafga qarab chiqarilgan bir necha kanallar havzasidagi vohalar tizimini o'z ichiga oladi. Bozorqal'a kanalidan chiqarilgan sug'orish tizimlarining bosh qismi yoki oxirgi quyi joyidagi hududlarning asosiy harbiy-ma'muriy markazi vazifasini bajargan. Dahaning bosh shahri Bozorqal'a va Jonbosqal'a yodgorliklari hududi bo'lganligini ko'rish mumkin[6]. Qal'alar sug'orish inshootlarining etagida bir-birlariga yaqin va qator qilib qurilgan. Bir rejaga asoslangan mudofaa tizimi va taraqqiy qilgan sug'orish inshootlarining mavjudligi Xorazm vohasining o'ziga xos markazlashgan davlat bo'lganligini ko'rsatadi.

Qirqqiz-Burgutqal'a Guldursinqal'dan Katta va Kichik Qirqqiz qal'asigacha bo'lgan 70 km masofaga cho'zilgan Tozabog'yob kanalidan chiqarilgan Qirqqiz kanalining dehqonchilik vohalarini qamrab olgan. Katta Guldursinqal'a, Katta va Kichik Qirqqiz qal'alari va undan keyingi davr yodgorliklari ham manashu dahaning ichiga kirgan. Bu massivning asosiy shahari avval Katta Qirqqizqal'a[7], undan so'ng Tuproqqal'a va Qirqqiz suniy sug'orish inshootlari ajratilgan joydagi Katta Guldursunqala hisoblangan[8].

Yakka Parson Tuproqqal'a kanalining davomi hisoblangan Yakka parson kanali dehqonchilik mikro vohalari markazi Ayozaqal'a 1, Ayozaqal'a 3 bo'lgan. Yakka Parson kanalining quyi joyidagi Ayozaqal'a 3 bosh ma'muriy markaz vazifasini bajargan[9]. Ayozaqal'a geografik jihatdan juda qulay joyda barpo etilgan. Burjlar yordamida burchaklarni himoya qilish usuli turli-tuman bo'lib, Qo'rg'oshinqal'ada to'rtala burchak to'rt xil mudofaa sistemasiga ega. Burchaklarning birida, Jonbosqal'adagi kabi, umuman burj yo'q bo'lib, uni juft qiyshiq shinaklar himoya qilgan. Boshqa bir burchakni uning ikki tomonida qad ko'tarib turgan burj himoya qilgan, burchak esa burjlar o'rtasida do'ppayib qolgan. Bunday tizim Xorazmdagi Bozorqal'a va Ayozaqal'a-l da qo'llanilgan.

Tuproqqal'a-Gavxo'ra dahasi Tozabog'yobdan Sulton Uvays tog'lari tomon borib Tuproqqal'a kanali dehqonchilik vohasidagi kichik vohalarni o'z ichiga olgan. Tuproqqal'a, Qizilqal'a, Dumanqal'a, Burliqal'alar ma'muriy markaz vazifasini bajarib, milodning II-III asrlardan Tuproqqal'aning bosh markaziga aylanganligini kuzatish mumkin.

Katqal'a madaniy xo'jalik dahasi Kat kanali havzasi hududidagi dehqonchilik vohasini o'z ichiga olib, xo'jalik markazining asosiy shahri Al-Fir bo'lgan[10].

Toshxirmon madaniy xo'jalik dahasi bu hududdan oqib o'tgan kanallar dehqonchilik kichik vohalarni suv bilan ta'minlab rivojlanishiga turtki bo'lgan. Bu massivning markaziy shahri Aqchaxonqal'a hisoblangan[11].

Bu davrda Amudaryoning o'ng sohilidagi ikki yirik kanal Kaltaminor va Tozabog'yob kanallari mavjud bo'lib, Amudaryo suv bilan ta'minlangan. Kaltaminor kanali janubiy va sharqiy tomonda joylashgan bo'lib, undan Bozorqal'a irmog'i ajralgan. Kaltaminor kanalining shimolga tomon harakatlanishida ilk antik davriga oid Qo'yqirilganqal'a yodgorligi joylashgan[12]. Qo'yqirilganqal'a daydib oqib turadigan toshqin suvlarini shu joyning o'zida boshqarish asosida vujudga kelgan bo'lib, istehkomlangan doira shaklidagi aholi punkti bo'lgan. Qo'yqirilganqal'a markazida to'garak bino bo'lgan bo'lib, uning atrofi to'qqiz burjli devor bilan o'rab chiqilgan. Markazda joy olgan silindrsimon shakldagi bino ikki qavatdan iborat bo'lib, arksimon o'tish yo'llari mavjud. Devorining tashqari qismida aylana bo'ylab turar joy va xo'jalik inshootlari joylashgan. Yodgorlik mustahkam qalin devor bilan o'ralgan bo'lib, vaqt o'tishi bilan yemirilib pastroq bo'lib qolgan.

Qo'yqirilganqal'aning shimoliy qismida Anqaqal'a joylashgan bo'lib, uning tarhi barcha tomonlari bir-biriga teng kvadrat shaklda ikki qatorli mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Devorlarida 4 burchakli, burchaklari qismida kvadrat burjlar joylashgan, bu burjlarining soni 9 ta bo'lib minora vazifasini ham bajargan. Devorlari va undagi burjlar, hamda boshqa qismlari boshida paxsadan, undan keyin kvadrat xom g'ishtdan qurilgan. Kvadrat g'ishtlarning o'lchami 40x40x10 smga teng bo'lgan[13]. Qal'aning mudofaa devori hamda burjlari nayza o'qi uchli shinaklar bilan yanada mustahkamlangan, ichki tomoni kengligi 1,20 sm, tashqi tomon esa 1,90 sm bo'lib, qal'a darvozasining janubiy-sharqiy devori markazida joylashgan, mudofaa uchun ikki burchagi to'g'ri burchakli burj bilan kuchaytirilgan bo'lib hajmi 5x8 metrdan iborat[14]. Qal'a bir gektardan kichikroq bo'lsada, fortifikatsiya nuqtai nazardan ancha mustahkam qurilgan[15]. Bu qal'a harbiy jihatdan juda mustahkam mudofaaga ega bo'lib u erda istiqomat qilgan mahalliy aholi xo'jalik ishlarida muvafaqqiyatlarga erishib borgan.

S.P.Tolstov va undan keyin tadqiqotlar olib borgan Ya.G'ulomovlar, Anqaqal'a yodgorligini milodiy III-IV asrlarga oid deb hisoblashgan[16]. Tadqiqotlar ko'lami yodgorlikdan topilgan sopol bo'laklari Qo'yqirilganqal'a yodgorligining yuqori qismi qatlamlari, Tuproqqal'a va Ayozqal'a 3 dan topilgan moddiy manbalariga juda ham yaqin ekanligini ko'rsatdi. Shundan kelib chiqib Anqaqal'a Xorazm vohasining I-III asrlariga tegishli o'ziga xos yodgorligi degan xulosaga kelishgan[17]. Antik davrdagi shahar, yirik qal'alar, saroylar voha ichkarisida, kanallar va ularning katta tarmoqlari boshlari yaqinida joylashgan. Bundan ko'zda tutilgan maqsad faqat mamlakatni mudofaa qilishgina emas, balki sug'orish tarmog'i ustidan, bu tarmoqdan foydalanuvchi dehqonlar ustidan nazorat o'rnatish uchun ham kerakligi sezilib turadi.

Anqaqal'adan shimoliy-sharqda Qo'ziqirilganqal'a majmuasi joylashgan bo'lib, dehqonchilik vohalari Kaltaminor kanali orqali sug'orilgan. Yodgorlik ikki qavatli bino bo'lib,

faqatgina uning birinchi qavati yaxshi saqlanib qolgan. Qo'ziqirilganqal'aning sharqiy tomonidan mudofaa devori topilgan, bu devor qo'shaloq bo'lib, qanday vazifani bajarganligi aniq emas. Bu erdan topilgan osori-atiqalar va ularning parchalari eramizning I-III asrlari bilan sanalangan[18]. Yodgorlikning shimoliy tomonida Bozorqal'a manzilgohi joylashgan bo'lib, dehqonchilik hududlari asosan Bozorqal'a kanali orqali sug'orilgan. Antik davrining boshlaridagi har-xil turdagi shaharlar orasida Amudaryoning o'ng qirg'oqida oldinroq barpo etilgan Bozorqal'a yodgorligi diqqatga sazovordir[19]. Bu yodgorlikning shimoliy-sharqiy tarafida Kaltaminor kanalining shimoliy tomonga qarab cho'zilgan kanal irmoqlari bo'yida Jonbosqal'a joylashgan. Jonbosqal'a Sulton Uvays tog'ining sharqiy qismida, Aqchadaryo o'zaniga yaqin joyda bunyod etilgan. Manzilgohning tarhi to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, uning mudofaa devorlari yaxshi saqlanib qolgan, tepalik ustidan 10 metr balandlikda ko'tarilib turadi[20]. Shahar darvozasidan qarama-qarshi tarafga ko'cha o'tgan bo'lib, bu shaharni ikki mahallaga ajratgan[21]. S.P. Tolstov qal'aning bu tariqa ikkiga bo'linganini urug' jamoasining dual asosida tashkil etilganini bildiradi, deya ta'kidlab o'tgan[22]. Qo'ziqirilganqal'aning shimoliy devor markazida yagona darvoza joylashgan va u bir qancha doirasimon aylanma dahliz yashirin yo'l bilan mustahkamlangan. Inshoot to'g'ri to'rtburchak shaklida, uzunligi 52 metr, kengligi 20 metr, kirish qismi 3,5 metr, labirint devorli yo'lakga ega, devor balandligi qal'a devori bilan teng bo'lib, umumiy maydoni 0,1 ga. Labirint devori ham ma'lum masofada joylashgan kamon o'qi uchli shinaklarga ega. Qal'a devorida burjlar yo'q, lekin ko'proq shinaklar mavjudligini ko'rish mumkin[23]. Qal'adagi keng ko'cha oldi tomonidagi joylashgan ibodatxonaga olib chiqadi. Yodgorlikda ibodatxona mavjud, lekin ark uchramaydi[24]. Bu erda arkning yo'qligini S.P. Tolstov shahardagi yuqori qatlam vakilari (shahar hokimi va boshqalar) oddiy mahalliy aholi sifatida yashagan bo'lishlari mumkin deb hisoblaydi[25].

Antik davr Xorazm vohasida yirik shahar va qal'alar va qasrlar qurish, katta-kichik suniy sug'orish tizimi kanallarni qazib keng maydonlarni o'zlashtirish davri bo'ldi. Buni yodgorliklarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlardagi moddiy manbalar ham tasdiqlaydi. Bu davr manzilgohlarining joylashish o'rni asosan suv yo'llari orqali joylashganligini ko'rish mumkin. Bu o'z navbatida aholiga qulayliklarni yaratibgina qolmay ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-harbiy hamda madaniy ravnaq topishga zamin yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жданко Т. А., Рапопорт Ю. А., 1995. Годы войны в жизни С. П. Толстова // Этнографическое обозрение. 1995. № 2, с. 64-70.
2. Бернштам А.Н. Проблема истории Восточного Туркестана, ВДИ, 1947. С.69.

3. Збруева А.В. Древние культурные связи Средней Азии и Приуралья. ВДИ, 1946. С.236.
4. Боратов П. Ўзбекистон табиий географияси. Т.: 1997. 154-156 б.
5. И.М.Жабборов. Ўзбек халқи этнографияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1994. 92 б.
6. Толстов С.П. Древности Верхнего Хорезма (Основные итоги работ Хорезмской экспедиции ИИМК 1939 г.) ВДИ. М.: 1941. №1. С.161-165.
7. Ходжаниязов Г. Фортификация древнего Хорезма (VI в. До н.э.- IV в.н.э.): Автореферат дисс. канд. Ист. Наук, Нукус., 1996. С. 5; Ўша муаллиф: Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари. Т.: Ўзбекистон, 2007. 30-32 б.
8. Неразик Е.Е. К проблеме развития городов Хорезма // Культура и искусство древнего Хорезма. М.: Наука, 1981. С.223-224.
9. Манылов Ю.П., Ходжаниязов Г. Аяз кала 1 и Бурлы кала (К изучению Хорезмской фортификации) // Археологические исследования в Каракалпакии. Т.: Фан, 1981. С.33-36. Болелов С.Б. Крепость Аяз кала 3 в правобережном Хорезме // Приаралье в древности и средневековье. М.: Изд-во вост. лит.: 1998. С.117-134
10. Манылов Ю.П. Работы на городище Пиль кала в 1963. // ОНУ. Т.: 1965. №3. С.45-46
11. Ходжаниязов Г.Х., Хелмс С.У., Снеддон Э. Археологические исследования на городе Акшахан кала в 2001 году // Археологические исследования в Узбекистане. Самарканд., 2002. С.165-168. Ягодин В.Н., Ходжаниязов Г.Х., Статов В.А. Внешняя стена городища Казаклы-Яткан // Ўзбекистон тарихи моддий ва ёзма манбаларда. Т.: Фан, 2005. 171-177 б.
12. Қиличев Т. Кўҳна қалъалар диёри. Т.: Фан, 1993. 73-74 б.
13. Толстов С.П. Древний Хорезм. М.: 1948. С.114-115.
14. Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари муҳофаа иншоотлари. Т.: Фан, 2009. 52-53 б.
15. Ходжаниязов Г.К. Анкакала – позднеантичная крепость древнего Хорезма // Вестник ККО АН РУз. Нукус. 1986. №1. С.57-58.
16. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. М.: 1962. С.115-118.
17. Ходжаниязов Г.К. Анкакала – позднеантичная крепость древнего Хорезма // ВКФ АН РУз. №1. Нукус. 1986. С.57-65.
18. Ходжаниязов Г. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари. Т.: 2007. 56-58 б.
19. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Т.: 1959. 81-82 б.
20. Толстов С.П. Древний Хорезм. М.: 1948. С.88-94.
21. Исмоилов С. Қадимги Хоразм қалъалари. Т.: 2007. 33-34 б.
22. Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари муҳофаа иншоотлари. Т.: Фан, 2009. 44-46 б.
23. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Т.: Фан, 1964.42-50 б.